

XARAKTER YARATISHDA YOZUVCHI MAHORATI

*Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti, Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi kafedrası professori, f.f.n.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

Annotatsiya: *Ijtimoiy jamiyatimizda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Badiiy asar inson ma'aviy olamini shakllantirish va boyitishning bosh omili sanaladi. Ayniqsa, bugungi kun hikoyachiligida insonning yangicha dunyoqarashi, tafakkur olamining rangin jilolari aks etmoqda. Hikoyada ijodkor shaxsi, uning ijod olamidagi mavqeyi, uslubiy o'ziga xosliklari yozuvchining mahorati bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi Ushbu maqolada adibning milliy xarakter yaratish mahorati, o'ziga xos badiiy uslubi tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy o'zlikni anglash, istiqlool g'oyalari, milliylik va umuminsoniylik, milliy xarakterlar, umuminsoniy qadriyatlar, tabiat va inson tasviri, millatparvar kurashchi, zabardast adib, tendensiya, qahramonlari dunyoqarashlari, badiiy tahlil, oshkora qatlam, yashirin qatlam, badiiy obraz, badiiy niyat, ijodiy jarayon, asar tili, asar, milliy an'analar, real shaxs, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasi, qahramon ichki olami, badiiylik, badiiy mahorat, individual uslub, badiiy tasviriy vositalar, xarakter, qahramon ma'naviy olami.*

ПИСАТЕЛЬСКОЕ НАВЫКОВ СОЗДАНИЯ ХАРАКТЕРА

*Хамидова Мухайёхон Обидовна
Наманганский государственный университет, профессор кафедры методики преподавания социально-гуманитарных дисциплин в начальных классах, кандидат педагогических наук кандидат филологических наук,
доцент НамГУ
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

Аннотация: Место художественной литературы в нашем обществе бесподобно. Произведение искусства считается главным фактором формирования и обогащения духовного мира человека. Особенно в сегодняшнем повествовании отражается новое мировоззрение человека, краски мира мысли. В повести личность творца, его положение в мире творчества, его стилистические особенности раскрываются во всей полноте писательского мастерства.

Ключевые слова: осознание национальной идентичности, идеи независимости, народность и универсальность, национальные характеры, общечеловеческие ценности, природа и образ человека, националистический борец, великий писатель, тенденция, мировоззрение героев, художественный анализ, открытый слой, скрытый слой, художественный образ, художественный замысел, творческий процесс, язык произведения, произведение, национальные традиции, реальный человек, художественная фактура, писательская фантазия, внутренний мир героя, артистизм, художественное мастерство, индивидуальный стиль, художественные изобразительные средства, характер, духовный мир героя .

A WRITER'S SKILL IN CREATING CHARACTER

*Khamidova Mukhayyoxon Obidovna
Namangan State University, Professor of the Department of Teaching Methodology of
Social and Humanities in Primary Education, f.f.n.*

Annotation: The place of fiction in our society is incomparable. A work of art is considered the main factor in the formation and enrichment of the human spiritual world. Especially in today's storytelling, the new outlook of a person, the colors of the world of thought are reflected. In the story, the personality of the creator, his position in the world of creativity, and his stylistic features are revealed with the fullness of the writer's skill.

Key words: awareness of national identity, ideas of independence, nationality and universality, national characters, universal human values, nature and human image, nationalist fighter, great writer, tendency, world views of heroes, artistic analysis, open layer, hidden layer, artistic image, artistic intention, creative process, language of the work, work, national traditions, real person, artistic texture, writer's fantasy, inner world of the hero, artistry, artistic skill, individual style, artistic visual means, character, spiritual world of the hero.

KIRISH

Shukur Xolmirzayevning 70-80-yillari yozgan hikoyalari qahramonlari dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarning yangi jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qahramonlarning aksari (masalan, "Ot egasi"dagi Inod, "Og'ir tosh ko'chsa..."dagi Eson) hayotiy jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha emas, qayta tahlildan o'tkazib, mustaqil baholay oladigan; milliy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarga yangicha nazar tashlovchi; ilg'or tafakkur tufayli jamiyatning ayrim luzumlariga dadil tanqidiy munosabat bildirguvchi kishilardir.

Jamiyat, vaziyat yoxud sharoit unga ma'qul deb tiqishtirayotgan tartibot yoki yashash me'yorini rad etish yoki hech bo'lmaganda, o'ziga vujudidagi ikkinchi "men"ning noroziligini ma'lum qilish yozuvchi qahramonlarining yetakchi belgilaridir. Cho'lpon va Abdulla Qahhorning ayrim asarlarini hisobga olmaganda, o'zbek hikoyachiligida uzoq vaqt tashviqiylik hukm surdi. 60-yillardan, sekin-sekin uning o'rnini badiiy tahlil egallay boshladi.

Bu jarayonda Sh.Xolmirzayev personajlari o'zbek hikoyachiligida qahramonlarning, ayniqsa, o'z-o'zidan qoniqmaslik va o'zini chuqurroq anglashga intilish ruhini mustahkamladi. Shu ma'noda adib o'z qahramonlarining ijtimoiy turmushdagi harakatlarini emas, balki ularning aql-zakovatini tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Adib tushunchasiga ko'ra, aql-zakovat qahramonning mehvaridir. Shu sababdan yozuvchini qahramon bajarayotgan ishlar, asarga asos qilib olingan voqea natijasidan ko'ra, shu voqea va natijaga

munosabatdagi qahramon aql-zakovatining ochilish jarayonlari ko'proq qiziqtiradi. Bunday hollarda Sh.Xolmirzayevning ayrim hikoyalari va undagi qahramonlar xarakteri nainki kitobxon yoki tanqidchi qalbida, ba'zan hatto asar muallifining o'zida ham aniq qaror topmagan bahsli munosabat uyg'otgandek tasavvur qoldiradi. Xususan, "Ko'k dengiz", "Tabassum" hikoyalari haqida shu fikrni aytish mumkin. Qahramonlar qalbidagi cheksiz ikkilanishlar – o'z qalbini taftish etish, ichki dunyodagi beqarorlik va vujudidan o'tgan ruhiy azoblar jarayoni ana shunday – qahramoning o'z-o'zini anglamoq yo'lidagi urinishlaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliylik va umuminsoniylik badiiy adabiyotning muhim talablaridan hisoblanadi. Jahon adabiyotining eng nodir asarlari ana shu ikki hodisani umumlashtirish, mushtarak holatda tasvirlay olish xususiyati bilan qadr topgandir. Zotan, adabiy asarda milliylik umuminsoniylik bilan uzviy aloqada, birlikda namoyon bo'lgandagina katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon jahon adabiyotida yaratilayotgan milliy xarakterlarni umuminsoniy qadriyatlar sohibi sifatida tasvirlash yetakchi tamoyilga aylangan.

Inson va tabiat munosabatlari turli milliy adabiyotlarga mansub Chingiz Aytmatov, Fyodor Abramov, Viktor Astafyev, Sergey Zaligin, Valentin Rasputin, Vasiliy Belov kabi yozuvchilarning asarlarida teran aks ettirilgan va bu narsa milliy muammolarning umuminsoniy mohiyatini ochishga qaratilgan. Chunki tabiat muhofazasi dunyo jamoatchiligini tashvishga solgan jahonshumul muammodir. Atoqli shoir R.Hamzatov ham bu masalaga to'g'ri yondoshib aytganidek, tabiatdagi har bir fojea, har bir muammo ko'pchilikning ahilligi bilan hal bo'ladi: "Ekologiya, tabiat muhofazasi hozir butun dunyoni tashvishga solib turgan eng jiddiy muammolardan biriga aylangan. Oroldek butun bir dengizni quritib, yo'q qilib yuborayotganimiz esa sira ham kechirib bo'lmaydigan hol. Million-million yillardan beri yashab kelgan bir dengiz ko'z oldimizda yo'qolib ketsa-ya... Bu dahshat-k-u! Orolsiz, uning atrofida istiqomat qilayotgan xalqning taqdiri, kelajagi qanday kechishini, hayotimiz qanday bo'lishini sira ham tasavvur qila olmayman. Uni qanday qilib bo'lsa ham suvga to'ldirish, avvalgi holiga

keltirish zarur. Bu masalani butun mamlakat birligida, ahillik bilan ijobiy hal etish lozim. Hozir bu sening dengizing, bu mening daryoyim deb o'tiradigan vaqt emas"[8, 162].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson va tabiat tasviri Shukur Xolmirzayev hikoyalarining mehvari bo'lib, mana shu ikki cheksiz dunyo uyg'unligiga tayanadi. Buni adibning "Ko'k dengiz", "Tabassum" hikoyalaridagi tabiatga yovuzlarcha munosabatda bo'layotgan g'addor kimsalar va uning Orol fojiasi misolida, shuningdek, o'z manfaati yo'lida Jalil otadek insonlardan foydalanish, bundan esa zarracha qilgan ishidan afsuslanmaydigan Mo'mindek insonlar hayoti bir-biri bilan qiyoslangan holda aks ettirilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Real hayotdagi vaziyat shunday bo'lganligi uchun ham badiiy ijoddagi insonning tabiatga munosabati tasviri nafaqat katta ijtimoiy, balki ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

Tabiat muhofazasi mavzusida yaratilgan badiiy asarlardagi qahramonlar qaysi millatga mansub bo'lmasin, ularning ichki kechinmalari va orzu-intilishlarida umuminsoniy tuyg'ular o'z ifodasini topishi zarur. Shu jihatdan qaraganda, Jalil ota ("Tabassum"), Ergash ("O'zbek xarakteri"), Umrzoq ("Ko'k dengiz") va boshqa qahramonlar o'zlarining milliy, ayni paytda umuminsoniy qiyofalariga ega. Jalil ota, hikoyadagi voqea tasviriga ko'ra, o'zbek xalqining farzandi, Boysunda o'sib-ulg'aygan. Uning xarakterida o'zbek xalqiga xos milliy tuyg'ular, fazilatlar shakllangan.

Hikoya qahramoni Jalil ota ham sho'roning jilvakor, jozibali va'dayu shiorlariga aldangan odam. Dardi ichida. Keksayganida saraton kasali bilan yotib qolgan. Chol bu haqdagi xabarni nevarasi – yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadaf orqali bilib oladi. "Qismat ekan-da, - dedi. Vo darig'. Yo'g'-ye... O'ksinish bekor. Birniki o'tdan, birniki suvdan... Meniki shundan ekan. O'zi bir hisobda yoshimniyam yashab bo'ldim. Men tengi qurdoshlarimdan kimlar qoldi? Ha-a, Mo'min... bor"[7,2].

Mo‘min kim? Mo‘minning tarjimai holini bilishdan avval Jalil aka kimligini bilish muhimroq. Jalil-Jali ota “...xushomad qilish, kattalarga ta’zimda bo‘lish, kezi kelganda, bir gapdan qolish ham qo‘lidan kelmadi. Aksincha, shunday qilib obro‘ topgan, martabaga mingan kishilardan nafratlanadi hamon”, deb yozadi adib. Uning hayoti jangu jadallarda o‘tgan.

Jalil aka qilgan xizmatlari evaziga nishon tugul, “bir parcha yorliq ham olmadi”. Ota kasal holida ana shularni o‘ylab yotganida uyida yugur-yugur bo‘lib qoladi. Jalil otaning yagona nabirasi Sadafni Mo‘min cholning nabirasiga uzatilayotganini bilib keskin rad etadi. Bu uning o‘g‘li bilan qilgan suhbat jarayoni orqali aks etadi.

Suhbat ota-bolaning ichki dunyosini, xarakterini yaqqol aks ettiradi. Anglashiladiki, gap-gapga qovushmaydi. Bular ota-bola emas. Shu nuqtadan boshlab ularning orasi buziladi: “Shokir kelib, Mo‘min aka haqida gap boshlaydi. Jalil ota ko‘zini yumib oladi”[7,5]. Chol o‘g‘lining gaplariga javob berish u yoqda tursin, hatto eshitishni istamaydi.

Jalil otaning “ont ichganman” so‘zini Shokir tushunmaydi. Aslida ota umrining ma’nosi, e’tiqodu hayotiy tirgagi mana shu so‘zda aks etgan. Ota-bola orasi shu qasam tufayli soviydi. Qasam va farzand - suv bilan olov. O‘quvchini hayajonga soladigan, uni o‘ylatadigan jihatlardan biri ham mana shu yerda.

-Yangi zamon odamlari Mo‘minga o‘xshaganlarga intilib yashay boshlaydi, unga yaqinlashishi, uning yonida bo‘lishni baxt deb biladi. Jumladan, Shokir ham otasi Jalil akaga tortmaydi. U tamomila begona bir muhitning bolasi bo‘lib voyaga yetadi. U ham Mo‘minga yaqinlashish orzusi bilan yashaydi. Uning tubanligi shu darajadaki, yolg‘iz qizi Sadafni qurbon qilib bo‘lsa ham hayotda, jamiyatda bir mavqe qozonsa, e’tibor topsa.

Sadafni uzatish voqeasi Jalil, Mo‘min, Shokir xarakterlarini yana-da aniqroq ko‘rish va kuzatish uchun bir vosita. Sadafsiz bu obrazlar qandaydir xira tortib, faqat ijtimoiy-siyosiy ma’no anglatish uchun qaratilgan personajlarga o‘xshab qolishi mumkin edi.

Hikoyada uchta xarakter tizimi bor. Jalil va Quyunni bir desak, Mo‘min va Jalil otaning o‘g‘li Shokir yana bitta xarakter tizimi. Hikoya ana shu xarakterlar kurashiga bag‘ishlangan. Asarda vatan va xudbinlik to‘qnashuvi tasvirlanadi. Vatan Quyundan fidoyilikni so‘raganda u hech ikkilanmasdan jonini fido qildi. Mo‘min sotqinlikni ixtiyor etgan edi, u ham o‘z niyatiga yetdi va yangi hukumat siyosatining barcha imtiyozlariga ega bo‘ldi.

Hikoyada tarix soxtalashtirilganiga bir misol keltirilgan xolos.

Quyun-yakkash hodisa emas. U yurtimiz tarixida o‘tgan barcha millatparvar kurashchilarning umumlashma obrazi. Yozuvchi uni katta qalb, pokiza e‘tiqod egasi, orkash inson sifatida tasvirlaydi.

Asarda Quyun mardlik timsoli o‘laroq gavdalandirilgan. U haqiqiy mo‘minga xos ish tutadi – o‘limini mardona qarshilaydi. So‘zining ustidan chiqadi. Hikoyada o‘quvchini hayajonga soladigan, qalbini to‘lqinlantiradigan bir nechta sahna va ko‘rinishlar bor [5, 294].

Asarda nafaqat turli taqdirilar, turli xarakterlar, hatto avlodlar o‘rtasidagi munozara-kelishmovchilik ham mahorat bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Hikoya ornomus, uyat, g‘urur haqida. Hikoyadan kelib chiqadigan birinchi ma‘no bosmachilikning tugatilishi, Quyun qo‘rboshi kabi yurt uchun kurashganlarning tuhmat bilan jismonan yo‘q qilinishi va pirovardida sho‘rolar istibdodining o‘rnatilishi. Ikkinchi ma‘nosi – asar haqiqat va haqsizlik o‘rtasidagi kurash tasviriga bag‘ishlangan. Yomonlikning dasti uzun bo‘ladi deganlaridek, Mo‘min chol xiyonat tufayli qahramonga aylandi. Bugungi avlod haqiqiy tarixni bilmaydi. Soxta qahramon bilan faxrlanadi. Uchinchi ma‘no shuki, Jalil ota boshidan ko‘p savdolar o‘tadi. Xizmatiga yarasha taqdirlanmadi. Lekin baribir o‘z qat‘iy ahdiga sodiq qoldi. G‘oyasidan, hayotiy prinsiplaridan zarracha chekinmadi.

Hikoya finalida Jalil ota o‘ladi: “hammani dahshatga solgan narsa – uning yuzida qotib qolgan tabassum bo‘ldi” [7,10]. Otaning bu tabassumi umr, hayot yo‘lining sarhisobidir. Bu tabassum zamirida uning gunohu saboblari, iroda va matonati –xullas, imon-e‘tiqodi mujassamdek, go‘yo. Yana ham to‘g‘rirog‘i,

uning yuzidagi tabassum aslida pastkash, subutsiz va nomard odamlarga achinishdir. Shu tariqa asar qahramoni Jalil ota bu bevafo dunyoning ustida kulib ketadi[5, 296].

Ma'lumki, turg'unlik yillari mafkurasining zamirida va maqsadida muayyan bir jamiyatni barpo etish g'oyasi yotgani kabi shu g'oyani ro'yobga chiqaradigan ideal qahramon obrazini yaratish, ya'ni sovet kishisining shaklu shamoyilini yaratish vazifasi ham belgilab berilgan edi.

“Ko'k dengiz” (1991) hikoyasi Shukur Xolmirzayevning istiqlool mavzuida yaratilgan, o'quvchini mushohada qilishga, fikrlashga chorlaydigan eng yorqin asarlaridan biridir.

Sh.Xolmirzayev “Ko'k dengiz” hikoyasini yaratish bilan ana shunday qarashlarga zarba berdi. Asardagi voqealar kichik-kichik detallarda qahramon tilidan hikoya qilib beriladi.

Xo'sh, hikoya qahramoni kim? Bu savolga adib hikoyaning boshida to'xtaladi. E'tibor bering, rassom yigit Yo'lchiboy xo'jalikning tarixiy muzeyida yashaydi. Bu tarixiy muzey esa tashlandiq chiqindilar oqiziladigan ko'l yonida joylashgan. Sho'ro davri siyosati o'zbek xalqi boyliklarigagina e'tibor berib, uning tarixi va farzandlariga qay darajada e'tiborsiz bo'lganligini yozuvchi mahorat bilan ko'rsatadi.

Asardagi ushbu jummalarga e'tibor qilaylik: “Uka, gap shunday, shunday... dedi. Qishloqda boshqa millat vakillariyam ko'p edi-da: o'ris, armani, koreys...” [6, 3]

Yo'lchiboyga direktor tilidan aytilgan ushbu jumlar o'quvchiga tugallanmagan fikrdek bo'lib tuyuladi. Lekin biz asarni o'qish davomida yozuvchi foydalangan tinish belgilari ortida qanday ma'no yotganligini tez anglaymiz. Direktor nega siniqadi? Qahramon uning yaxshi odamligiga nega urg'u beryapti? Chunki o'sha davr siyosati rahbar shaxslarni o'zi xohlamagan ishlarga ham majbur qilardi. Direktor ongli, aqlli shaxs. U siyosatning bu o'yinini yaxshi tushunsa-da, o'jizligi sababli ham siniqadi. Qolaversa, qarshisidagi yigit uysiz, sharoitsiz muzeyda yashab mehnat qilayotganligini bilardi.

O'zi va'da qilayotgan yaxshi sharoit, uy-joy qandaydir bir kelgindiga emas, mana shu yigitga bo'lishini istaydi. Adib yaxshi odam siniqishining ostiga mana shu fikrlar yashirganligini o'quvchi tez anglaydi.

Yo'lchiboy xo'jalik rahbarining topshirig'i bilan "Drujba" sovxoziga 40-millat vakilini olib kelish maqsadida Barnaulga jo'naydi. Uning oltoylik Umrzoq, Ivan Ivanovich bilan uchrashishi hikoyaning umuminsoniy ahamiyatini oshishga xizmat qiladi. Xo'sh, Umrzok Ivan Ivanovichning umuminsoniy xislatlari nimada ko'rinadi? Birinchidan, Umrzoq, oltoylik turk. Uning aytishicha, turkiy qavmlarni ruslashtirish siyosati unga Ivan Ivanovich degan nomni qo'shib bergan. Bu holni biz ruslashtirish siyosati boshlanishi bilan o'zbek ismlarining buzilganligida, ismlarimiz ma'nosining yo'qotilganligida ham ko'ramiz. Shukur Xolmirzayev o'zini qiynaydigan sho'ro davri illatlarini Umrzoq obrazi orqali aytishga harakat qiladi. Bu holni Umrzoqning ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashida ham ko'ramiz. U muallimlar tayyorlash dorilfununida xalq og'zki ijodidan dars beradi. U siyosatdan norozi bo'lib, hatto Moskvaga xat ham yozadi. Shunday kunlarning birida bir o'ris yigiti bilan aytishib qolib, siyosiy aybnoma bilan, ya'ni, "millatchi", "xalq dushmani" tamg'asi bilan ayblanib qamaladi. Qamoqdan qaytgach, o'z uyiga ham kirolmaydi. Bizga ma'lumki, "xalq dushmani", "millatchi" tamg'asi bilan ko'plab o'zbek ziyolilari qamoq, azobini tortgan. Hatto o'limga ham mahkum qilingan, Ularning yaqinlari ta'qib ostida yashashgan. Umrzoq qamoqdan qaytgach farroshlik qilib, topgan puliga aroq ichadi. Yozuvchi yaratgan bu qahramon ichki dunyosini tekshirib ko'raylik. Asar oxirida biz uni kim deb aytishimiz mumkin? Ko'z oldimizda isqirt yerto'lada, qurum bosgan to'shakda yotgan, hayotini aroqsiz tasavvur qila olmaydigan, ammo o'z xalqi tarixini, xalq og'zaki ijodini, urf-odatlarini yaxshi biladigan va har qanday sharoitda ularni ardoqlaydigan shaxs sifatida gavdalanadi. Uchinchidan, jamiyatning hech bir jabhasida foydasi tegmaydigan, yangilikni hazm qila olmaydigan, o'zi va o'z qavmlaridan tashqari hech kimni tan olmaydigan, to'rtinchidan esa, yosh avlodni o'tmish rivoyatlari, ertak va afsonalar, topishmoqlar, har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlari bilan ma'naviy dunyosini

boyitadigan shaxs gavdalanadi. Bir qarashda o'quvchi undan nafratlanadi, asarni o'qish davomida achinadi, o'qib bo'lish jarayonida beixtiyor uning xatti-harakati va gap-so'zlaridan to'g'ri xulosa chiqarib, unga havas ham qiladi.

Yozuvchi bu xislatlarni qahramonga singdirar ekan, o'z badiiy niyatini amalga oshirish uchun bittagina qahramon tanlaydi va uning zimmasiga katta vazifani qo'yadi. Xo'sh, bu bilan umuminsoniy ahamiyatga ega qanday muammoni o'rta qo'ymoqchi? Uning maqsadini biz nimalarda ko'ramiz? Birinchidan, Umrzoq, aytgan qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar o'zbek xalqiga ham xos xislatlardandir. Masalan, kuyov tanlashdagi savol-javoblar, topishmoqlar va aytishualar qadimda bizda ham kuyovlarning aql-zakovatini aniqlashning bir ko'rinishi bo'lgan. Yoki kelin o'z qayinsingil, qaynilar, qaynotasining ismini aytmay, ularga boshqa ismlar bilan murojaat etishi o'zbek xalqiga ham xos odatlardandir. Ikkinchidan, Umrzoq intilgan va ardoqlagan "Ko'k ko'l" bu Orol dengizi bo'lib, uning fojiasi nafaqat oltoyliklarning, balki butun Orolbo'yi xalqlarining fojiasidir.

Hikoyada umuminsoniy qiymatga ega bo'lgan Qora dengiz, Ko'k dengiz, Oq dengiz, ularning ahvoli haqida gap ketadi. Bir vaqtlar Orol dengizining suvi ko'm-ko'k va tiniqligi uchun ko'k dengiz deyilgan va uning sohillarida turkiy xalqlar istiqomat qilganlar. Dengizda baliq ko'p bo'lib, xalq shu bilan tirikchilik qilgan. Ruslar bu o'lkaga kelishi bilan zavod-fabrikalar qurib, chiqindilarni suvga oqizib, qolaversa, baliq urug'laridan ikralar yasab, bu xalqning boyliklaridan biri atalmish Orol dengiziga, baliqchilarga naqadar katta ziyon yetkazganligini bilamiz. Yozuvchi xuddi ana shu narsaga ishora qilib, Umrzoqni nazarda tutgan holda shunday yozadi:

"U "Ko'k dengiz"ga ketish taraddudini ko'rar ekan, buning boisini shunday aytadi.

- "Men Ko'k tengisi ketiyam! - Umrzoq aka tuyqus shunday deb, o'rnidan turdi.

- U-u dengiz juda yiroqda! - dedim. Keyin qolganiniyam aytdim:

- U - Orol ko'li-ku? U horg'in bosh irg'adi.

Hi-ya, hi-ya... No Ko'k dengiz - maya mehta! - deb xitob qildi keyin:

-A, ve znayete yeyo sostoyaniye? - dedim. - Ko'k dengiz quriyat. Baliq yoq,

-Bar! - dedi u jahl bilan. -Ko'k tengis paka tiri! Onda ortalikter bar... Tam budu jit i shamanit, kak Altayskiy shaman! Balikter ach o'lsa, ozumni berem!"[6, 3]

Yozuvchi Umrzoqning tilida oltoycha va rus tiliga oid so'zlarning aralashib kelishini ifodalash jarayonida oltoy tilining boyliklari yo'qolib borayotganligini ko'rsatishga erishgan. Bu tafsil qahramonni haqiqatni izlashga majbur etgan birlamchi unsurlardandir. Umrzoqning nutqida ma'lum ma'noda majoziy iboralar ham o'z aksini topgan. Ko'k dengiz - uning nazdida ozodlik, mustaqillik mavjud bo'lgan o'lka. U o'z yurtida buni topolmagach, Yo'lchining so'ziga ishonib, yo'lga chiqadi, lekin unga erisha olmay, yana yo'lida davom etadi. Baliqlar esa mustaqillikni orzu qilgan o'lkaning odamlari timsollari. Shu sababli ham Umrzoq baliqlar taqdiri bilan o'zini bog'laydi, ular och bo'lsa, o'zini hatto ular uchun yem qilishga ham tayyor ekanligini aytadi. Bu qahramonning Vatan va el taqdiri bilan o'zini bog'lashi, mustaqil Vatan yo'lida o'limga ham rozi ekanligining ifodasidir.

Sh.Xolmirzayev hikoya qahramonlariga o'z tuyg'ularini singdirar ekan, Umrzoq tilidan shunday deydi: Emishki, Oltoyda "begona o't" larni "yerning ulon" lari deyisharkan. "Yovvoyi hayvonlar" ni ham – "yerdin! yerlik! Tindular", uy hayvonlarini esa "asrandi" deb atashar ekan. Adib "Menimcha, ular haqli" deydi. U nimani nazarda tutayotganligini o'quvchi tushunadi. Yoppasiga ruslashtirish siyosati avj olgan yillarda o'lkamizga mutaxassis niqobi ostida kelgan minglab kishilarning kelgindilar ekanligiga shama qilmoqda. Bundan tashqari, yozuvchi Umrzoqni Ko'k ko'lni ko'rishga undaydi. U qahramonni uylik, ishlik qilgan, o'z yurtida topmagan qadrini ham tiklab bergandi. Asarni shu yerda tugallasa ham bo'laverardi. Lekin adib o'z badiiy niyatini yanada chuqurlashtirib, qahramon zimmasiga Ko'k ko'lni ko'rish istagini ham yuklaydi. Umrzoqni uy ham, xotin ham, tekin aroq ham qiziqitirmaydi. Uning Ko'k ko'lni ko'rishga intilishi, bu yurtda topishmoqlarga e'tibor qay ahvolda ekanligiga qiziqish uni O'zbekistonga olib kelgan edi. Lekin o'zbeklar yurtida bu narsalarni ko'rmaydi.

Ko'k dengizda balchiq oqayotganligini, dengiz quriyotganligini ko'rib yig'laydi. Orol o'layapti, bu xalqning fojiasi deb qayg'uradi.

Shukur Xolmirzayev oltoylik qahramon orqali kishilarga yo'qolib borayotgan ma'naviy boyliklarini eslatadi. Yig'lab charchagan Umrzoq chuqur o'yga toladi va tog' bag'ridagi zavodga qarab miyig'ida kuladi.

- Bu yurt Uzbekiston po?

- Albatta, - dedim.

- Yok!- dedi u, kulimsirashni qo'ymay.

- Bu yurt - Drujba...

- So'ng hiqqillab pichirlay boshladi: - Bizim Oltoyda "Drujba-drujba" deb yok oldu.

Mana shu dialogda yozuvchi umuminsoniy qimmatga ega bo'lgan fikrni aytadi va shu fikrni "nuker", ya'ni "navkar" so'zi bilan izohashga ham erishadi. Nega navkar deyapti? Mana shu birgina so'zning zamiriga 70 yillik turg'unlik yillarida turkiy xalqlar rus siyosati va xalqiga naqadar xizmat qipganligini ko'rsatishga erishgan.

Qolaversa, o'z avlodlarining qadimgi turk tilidagi so'zlarni unutib, uni tushunmay, o'z mehmonlariga rus tilida gapirib, bir- birini tushunishga muyassar bo'lgan o'zbek farzandlarining ustidan kuladi.

Ko'rinib turibdiki, asar qahramoni yaxshi sharoitlarda odamlardek yashash uchun emas, balki Yo'lchiboyning bizda ham topishmoqlar, afsonalar juda ko'p, Ko'k ko'l ham zo'r deb maqtangani uchun, umrining oxirida shu ozod o'lka boyliklaridan bahramand bo'lib yashash uchun keladi. U bu boyliklarni tanazzul yoqasida ko'rib, bu yurtidan o'sha zah, sassiq, joyni afzal ko'radi.

Yozuvchi hikoyada uch tilni ham mahorat bilan o'z o'rnida ishlatadi. Va hikoya orqali o'zbek xalqini oz'z ota-bobolari tilini ham, ma'naviy boyliklarini ham, urf-odatlarini ham hurmat qilishga undaydi.

Sh.Xolmirzayev tuzumning illati sababli hayotining achchiq qismati oldida bosh egmagan irodali badiiy qahramonni katta mahorat bilan yaratadi.

Biz asarda “aka” deb murojaat etishi bilan qahramonga aylangan va o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni xolis hikoya qilishi bilan yozuvchiga aylangan qahramonni ko‘ramiz. Bu, albatta, adib uslubining bir ko‘rinishidir.

Adib bilan bo‘lgan bir suhbatimizda u shunday deydi: - “Meni yig‘latadigan, kuldiradigan nuqtalar bo‘ladi. Har xil holatlarni o‘sha nuqtalarda topganimda uning ildiziga tushmoqchi bo‘laman. Men kimniki yozmoqchi bo‘lsam, shu qanday qilib o‘ladi, qanday bo‘lib qismati tugarkin deb o‘ylayman. Shu qahramonning bir kunini yozayki, shuning o‘limi ma‘lum bo‘lsin, deb orzu qilaman”[1,75].

XULOSALAR

Asarni o‘qish davomida chuqur falsafiy mushohadalarga duch kelish bilan birga, o‘zimiz ham tasvirdagi voqealarni hayot falsafasiga qiyoslaymiz. Bu albatta yozuvchining o‘z badiiy niyatini tasvirlash mahoratidir.

Haqiqatdan chekinish adabiyotning fojasidir. Sh. Xolmirzayev adabiyotning bu qonuniyatini chuqur his etgan ijodkor.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida ham, boshqa yirik janrlarda yaratilgan asarlarida ham turli-tuman badiiy-tasviriy vositalar o‘z o‘rnida va juda muvaffaqiyatli qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa Shukur Xolmirzayev asarlarining badiiy jihatdan yuksak bo‘lishini taminlovchi asosiy omillardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o‘ziga xosligi: Filol.fanlari nomzodi... diss.- Toshkent, 2000.- 130 b.

2. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B. va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi: Un-tlar va ped.in-tlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darsli. - Toshkent: O‘qituvchi, 1999.-544 b.

3. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. - T.: Yosh gvardiya, 1995.

4. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. - T.: Fan, 1967.

5. Toshboyev O. Abadiy zamondosh. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - 480 b.

6. Xolmirzayev Sh. Ko‘k dengiz// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1991 yil 12 aprel

7. Xolmirzayev Sh. Tanlangan sarlar. III jildlik. II jild. Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003.- 448 b.

8. Xolmirzayev Sh. Mo'jiza bo'lib qolsin // Sharq yulduzi, 1988.- № 6. – B.162
- 9.Hamidova M.O. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi, 2021.- № 4.- B. 318-322.
- 10.Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri // International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.
- 11.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 12.Hamidova M.O.Artistic Intention and Artistic Form // Spanish journal of innovation and integrity. P.475-480.
- 13.Hamidova M. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi, 2021.- № 4.- B.331.
- 14.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.- B.106.